

AXBOROT XATI

Hurmatli talabalar va o‘qituvchilar!

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti Turizm qo‘mitasi bilan hamkorlikda “Yoshlar va turizm - yangi istiqbol va imkoniyatlar” mavzusida «**Students Cup 2024**» Respublika tanlovini e’lon qiladi.

Ushbu tanlov O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining turizmni rivojlantirish va bu borada innovatsiyalarni joriy etishdan manfaatdor bo‘lgan bakalavriat va magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan.

Tanloving maqsadi - O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun ilmiy va innovatsion yechimlarni taklif qilishga qodir iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Tanlovda ishtirok etish o‘quvchilarning o‘zini namoyon etishi, o‘z g‘oyalalarini namoyish etishi va mamlakat turizm industriyasiga rivojiga hissa qo‘sishi uchun imkoniyat yaratadi.

Loyiha mavzulari keng doiradagi sohalarni qamrab oladi, jumladan:

- turizm sohasidagi innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar;
- turizmning ijtimoiy va yekologik jihatlari;
- marketing strategiyalari va turizmni rivojlantirish;
- turizm mahsulotlarini rivojlantirishga ijodiy yondashish.

Mukofot jamg‘armasi:

- 1-o‘rin - 5 mln. so‘m;
- 2-o‘rin - 3 mln. so‘m;
- 3-o‘rin - 2 mln. so‘m.

Saralash bosqichidan o‘tgan ishtirokchilar o‘z loyihalarini turizm sohasi mutaxassislari va akademik hamjamiyatdan iborat vakolatli hakamlar hay’atiga taqdim etadilar. G‘oliblar pul mukofotlari, diplom va sertifikatlar, shuningdek, yetakchi sayyoqlik kompaniyalarida amaliyot o‘tash imkoniyatiga yega bo‘ladilar.

Loyihani baholash mezonlari:

Loyihalar quyidagi mezonlar bo‘yicha baholanadi:

- G‘oyaning qanchalik innovatsionligi va o‘ziga xosligi (25 ballgacha).
- Loyihaning amaliy qo‘llanilishi va haqqoniyligi (25 ballgacha).
- Loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati (20 ballgacha).
- O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishga ta’siri (20 ballgacha).
- Loyiha taqdimotining sifati (10 ballgacha).

Arizalarni qabul qilish - joriy yilning 12 noyabrdan 12 dekabrga qadar fmalga oshiriladi. Ishtirok etish uchun siz ro‘yxatdan o’tish formasini to’ldirishingiz va loyiha tavsifini taqdim etishingiz kerak. Arizalar yakka tartibda qabul qilinadi.

Tanlovga qo'yiladigan talablar.

Tanlov doirasida har bir loyiha yozma ravishda va quyidagi bo'limlar asosida topshirilishi kerak:

4.1. **Mavzuning dolzarbligi va talabi** - ko'rib chiqilayotgan mavzuning O'zbekistonda va undan tashqarida turizmning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari uchun ahamiyatini asoslab beradi.

4.2. **Turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi** – loyihaning Turizm qo'mitasi tomonidan belgilab berilgan asosiy yo'nalishlarga, turizm sohasidagi davlat dasturlari va me'yoriy hujjalarga qanday bog'liqligi haqida tushuntirish.

4.3. **Tadqiqot usullari** - natijalarga erishish uchun loyihada qo'llaniladigan tadqiqot va tahlil usullari, yondashuvlar va vositalarning tavsifi.

4.4. **Yangilik** - loyihaning turizm sohasidagi mavjud yechimlardan ajratib turuvchi noyob va innovatsion elementlarining mavjutligi.

4.5. **Iqtisodiy asoslash** - loyihaning iqtisodiy samaradorligi, taxminiy byudjeti yoki xarajatlari va uni amalga oshirish mumkin bo'lgan foydaning qisqacha hisob-kitobi yoki tahlili.

4.6. **Muammoning qisqacha bayoni** loyihada ko'rsatilgan muammoning aniq echimi, maqsad va aniq bayoni.

4.7. **Ijtimoiy ahamiyat** - loyihaning jamiyatga, turizmga va umuman iqtisodiyotga bo'lgan ta'sirini, uning mahalliy aholi va jamiyat uchun foydasini baholash.

4.8. **Natijalar va takliflar** – loyiha orqali kutilayotgan natijalarining qisqacha mazmuni, shuningdek, turizm sohasida amalga oshirish uchun taklif qilinishi mumkin bo'lgan aniq tavsiyalar yoki amaliy qadamlar.

4.9. **Xulosa** - loyihaning asosiy xulosalari.

Loyihalar yozma ish va multimedia taqdimoti shaklida taqdim etilishi kerak.

Yozma ishlarning maksimal miqdori -15 betgacha, shrift **Times New Roman**, hajmi 14, satrlar oralig'i 1,5.

Multimedia taqdimotlari **PowerPoint** yoki shunga o'xshash formatda, taqdimotning maksimal davomiyligi 10 daqiqadan oshmasligi kerak.

Loyihalar original bo'lishi, mualliflik huquqlarini buzmasligi va ilgari nashr etilmagan yoki boshqa tanlovlarga taqdim etilmagan bo'lishi kerak.

Materiallar dizayniga qo'yiladigan talablar:

Loyiha materiallari faqat elektron pochta orqali qabul qilinadi va ikkita alohida biriktirilgan fayl shaklida taqdim etiladi:

Taqdimotlar yozma ish va multimedia shaklida quyida ko'rsatilgan saytlarda taqdim etiladi:

<https://forms.gle/stU5DAoXSpY5bGGB8> (uzbek tilida);

<https://forms.gle/ukgW6XVk5FahaF2D9> (rus tilida).

Tanlovnii baholash mezonlari va ishtirok etish shartlari to‘g‘risida qo‘srimcha ma’lumotlarni tashkilotchilarga murojaat qilish orqali olish mumkin: Turizm qo‘mitasi huzuridagi turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti. Tel: (+998 71) 268-73-71; (+998 97) 101-38-58; elektron pochta: fan@tridm.uz

Talabalar «**Students Cup 2024**» musobaqasiga qo‘siling va O‘zbekistonning kelajakdagi turizmnинг bir qismiga aylaning!

Hurmat bilan,
«Students Cup 2024»
musobaqasining Tashkiliy qo‘mitasi